



ENDOKRIN TIZIMI VA KASALLIKLARINI ADABIYOTLAR BO'YICHA O'RGANISH

PhD Xudoyarova G.N.

Qurdosheva Ozoda,

Usmonova Ozoda,

Mamadoliyeva Feruza

(davolash ishi fakulteti 148- guruh talabalari)

SAMARQAND ZARMED UNIVERSITETI

Mavzuning dolzarbligi: Endokrin va nerv tizimlari organizmdagi barcha a'zolar faoliyatini boshqaradi va muvofiqlashtiradi. Bunda endokrin tizim asosan organizmda kechadigan moddalar almashinuvi, tananing o'sishi, reproduktiv (jinsiy hujayralarning rivojlanishi) faoliyat kabi nisbatan umumiy jarayonlarni boshqaradi. Endokrin bezlarning mikrotsirkulyator tomirlar tizimi sinusoid kapillyarlar tutishi va kapillyar old bo'shlig'ining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Endokrin sistemasining asosiy vazifasini gormonlar (yunon. "hormone" - "qo'zg'atmoq," ta'sir qilmoq) asosan organizmning moddalar almashinuvi, somatik o'sish, reproduktiv faoliyat kabi asosiy funksiyalarini kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi ta'sir ko'rsatadigan yuqori faollikka ega boshqaruvchi omillardir.

Kalit so'zlar: hujayra, bez, mikrotsirkulyator, tomir, tizim, somatik, sinusoid kapillyar, sekretiya, gipofiz.

Mavzuning maqsadi: Endokrin sistemaga tegishli bo'lgan sekretiya bezlaridan ajraladigan garmonlar va ular keltirib chiqaradigan kasalliklarni o'rganish.



Tadqiqot uchun materiallar: Biz tadqiqotni amalga oshirish uchun endokrin tizimi haqidagi qo'llanmalar va adabiyotlardan foydalandik. Tadqiqotimizda tuzilishi va funksiyasiga ko'ra sekretiya bezlarini o'rganamiz:

1. Tashqi sekretiya
2. Ichki sekretiya
3. Aralash sekretiya bezlariga bo'linadi.

Endokrin sistema– ichki sekretiya bezi hisoblanadi. Ichki sekretiya bezlarining sekret chiqarish yo'li bo'lmaydi. Ular ajratgan gormonlar qonga chiqariladi. Ichki sekretiya bezlariga -qalqonsimon bez, qalqonoldi bezlari, gipofiz, ayrisimon, epifiz bezlari kiradi.

Nerv va endokrin hujayralari uchun umumiylik -gumoral boshqaruv omillarini ishlab chiqarishdan iborat. Endokrin hujayralar gormon sintezlaydi va ularni qonga chiqaradi, neyronlar esa sinaps bo'shlig'iga ajraluvchi neurotransmitterlar yoki o'zgartiruvchilar (aksariyati neyroaminlar: noadrenalin, serotonin va boshqalar)ni ishlab chiqaradi. Gipotalamusda nerv va endokrin hujayralar uchun xos bo'lgan xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan sekretor neyronlar joylashgan. Ular ham neyroaminlar, ham oligopeptid gormonlarni sintezlash xususiyatiga ega. Neyroendokrin hujayralar nerv va endokrin tizimlarni yagona neyronendokrin tizimga birlashtiradi.

Periferik endokrin a'zolar tasnifi

1.	Sof endokrin bezlar	(qalqonsimon bez, buyrakusti bezi)
----	----------------------------	------------------------------------



2.	Endokrin va noendokrin vazifani bajaruvchi aralash a'zolar	(me'da osti bezi,yo'ldosh va jinsiy bezlar)
3.	A'zo va to'qimalarda diffuz joylashgan	ayrim endokrin hujayralar – diffuz endokrin tizim (DES)

Madomiki, endokrin bezlar funksional jihatdan yagona boshqaruv tizimni hosil qilar ekan , endokrin a'zolariningo'zaro aloqasi va ularning ierarxik bog'liqligini ko'zda tutuvchi tasnif ham mavjud:

1.Markaziy endokrin bezlar (aksariyat periferik endokrin bezlar faoliyatini boshqaradi)

-gipotalamus(neyrosekretor yadrolar);

-gipofiz(adenogipofizva neyrogipofiz);

-epifiz

2. Adenogipofiz tobe periferik endokrin bezlar va endokrinostlar:

1)qalqonsimon bez (tirotsitlar)

2)buyrakusti bezi (po'stloq moddasi)

3)jinsiy bezlar (urug'don , tuxumdon)

3.Adenogipofizga tobe bo'lmagan periferik endokrin bezlar va endokrinotsitlar:

1)qalqonsimon bezlar kalsitoninotsitlari;

2)qalqonsimon bez oldi bezi;

3)buyrak usti bezining moddasi va parangliylar;

4)me'daosti bezi Langergansorolchalari endokrinotsitlar

5)noendokrin a'zolar tarkibidagineyroendokrinotsitlar,dispers endokrin tizim endokrinotsitlari (ADUP-tizimhujayralari)



1. Gipofiz bezi (miya osti bezi)

- **Joylashuvi:** Bosh miyaning pastki qismida.
- **Vazifasi:** "Asosiy bez" deb ataladi, chunki u boshqa ko‘plab bezlarning ishini boshqaradi.
- **Gormonlari:** O‘sish gormoni, tireotrop gormon, follikulani stimullovchi gormon va boshqalar.

2. Epifiz bezi (shamashak bez)

- **Joylashuvi:** Bosh miyaning orqa qismida.
- **Vazifasi:** Tana biologik soatini tartibga soladi, uyqu va uyg‘oqlik ritmlariga ta’sir qiladi.
- **Gormoni:** Melatonin – uyqu rejimini boshqaradi.

3. Buyrak usti bezlari

- **Joylashuvi:** Har ikki buyrakning ustida joylashgan.
- **Vazifasi:** Stressga qarshi javob, qon bosimi va suv-tuz muvozanatini boshqaradi.
- **Gormonlari:** Adrenalin, kortizol, aldosteron.

4. Qalqonsimon bez

- **Joylashuvi:** Bo‘yin old qismida, "qalqon" shaklida joylashgan.
- **Vazifasi:** Moddalar almashinuvi, tana harorati va energiya ishlab chiqarishni boshqaradi.
- **Gormonlari:** Tiroksin (T4), Triyodtironin (T3).

5. Qalqonoldi bezlari (paratiroid bezlar)

- **Joylashuvi:** Qalqonsimon bezning orqa tomonida, juft holda.



- **Vazifasi:** Qonda kalsiy va fosfor miqdorini tartibga soladi.
- **Gormoni:** Paratgormon (PTH).

6. Ayrisimon bez (timus)

- **Joylashuvi:** Ko'krak qafasida, yurak ustida.
- **Vazifasi:** Bolalikda immun tizimini shakllantiradi, T-limfotsitlar ishlab chiqaradi.
- **Xususiyati:** Yoshlikda faol, voyaga yetgach asta-sekin kichrayadi va faoliyati pasayadi.

Xulosa: Bu bezlar kichik hajmiga qaramasdan, organizm uchun nihoyatda muhim hisoblanadi. Ularning har biri o'ziga xos gormon ishlab chiqaradi va tananing normal ishlashi uchun kerakli funksiyalarni bajaradi. Ichki sekretsiya bezlaridagi har qanday buzilish sog'liq muammolariga olib kelishi mumkin, shuning uchun ularni sog'lom holatda saqlash muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vahidova A. M., Khuzhdanova M. A., Kuziev M. S. Intensification of Pecilomyces Spherules in Patients with Echinococcosis //Jundishapur Journal of Microbiology Research Article Published online 2022 April Vol. 15, No.1 (2022)
2. Юнусов Х.Б., Вахидова А.М., Худоярова Г.Н. (2021) Эпидемиология и иммунный статус при эхинококкозе легких, осложненного пециломикозом/ Медицинская ветеринарии, № 1 (9), 15-23//Пециломикоз билан мураккаблашган упка эхинококкозида эпидемиология ва иммунитет долати / Тиббиёт ветеринарияси, 1 (9), 15-23



3. Muratova Z.T. Vakhidova A.M., Askarova J.R., Sobirjonova M.J. (2021) Main causes, transmission routes, diagnostics and echinococcosis treatment// Features of the development of modern science in the pandemic's era 1 (3), 64-69
4. Khudayarova Gavkhar, Vahidova Adolat (2020) Yosh bolalarda pnevmoniya infeksiyasining tamoyillari va davolash usullari // Журнал Биомедицины и практики, № 5(5), 85-91
5. Vakhidova A.M. Oripova P.O. Jamalova F.A. Bobokandova M. (2021) Clinical and laboratory characteristics of pneumococcal meningitis in adults// F. European Scholar Journal (ESJ) 2(6), 173-182.
6. Vakhidova A.M, Khudoyarova G. N, Muratova Z. T, Mamatova O. B (2021) Adaptive changes of the blood system and features of physiological adaptation in athletes in International scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 conditions of different mountain heights during sports training// GALAXY International Interdisciplinary Monthly Journal 1 (9), 120-125
7. Вахидова Адолат Маматкуловна. (2020) Исследование микрофлоры содержимого эхинококковых пузырей по морфологическому соотношению и определение ее чувствительности к антибиотикам / Academy 1 (№ 7 (58)), 8-11// Эхинококк пуфаги таркибидаги микрофлорани морфологик нисбати буйича урганиш ва унинг антибиотикларга сезгирлигини аниклаш/ Academy 1 (№ 7 (58)), 8-11
8. Бобокандова М.Ф., Орипова П.О., Худжакулов Д.А. Изучение распределения микроэлементов ni, co, mn и zn в некоторых тканях кроликов "экономика и социум" №2(93) 2022 www.iupr.ru